XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA TUMAN KENGASHI

QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-45-60-11-163-K/21 Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, "Budjet kodeksi" ning 27, 99-moddalari, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/845-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Farg‘ona tumani mahalliy budjetining 2022-yilgi daromadlari 106,4 mlrd.so‘m va xarajatlari 206,6 mlrd.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 100,2 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Farg‘ona tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman budjetidan 2022-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning tasdiqlan

me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga viloyat bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Viloyat budjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfer miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

7. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 948,5 mln.so‘m miqdorida belgilansin:

- bunda, tuman budjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘larini "Budjet kodeksi" ning 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

- tuman budjetini ijro etishda yuqori budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertning prognozidan oshgan qismi uchun tuman budjetining zaxira jamg‘armasi miqdoriga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

8. 2022-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 987,0 mln.so‘m etib belgilansin.

9. Quyidagilar:

- qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 3-ilovaga muvofiq;

- jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 4-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasi qilishdagi aksiz solig‘i;

- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va lisenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

- ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizasiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat byudjeti daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividendlar;

- yer uchastkalariga bulgan xuquqlarni sotishdan tushgan pul mablaglari;

- bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

- boshqa tushumlar (ushbu bandning “v” va “g” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan tuman mahalliy byudjetining boshqa tushumlari hamda byudjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman byudjetiga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘lig‘icha o‘tkazilishi;

b) mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- aylanmadan soliq;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

- davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar tuman byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

- jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi;

- yuridik shaxslar foydasidan soliq bo‘yicha tushumlarning faqat Farg‘ona shahrida 50 foizi o‘tkaziladi;

- yuridik shaxslar yer va mol-mulk soliqlag‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlarning 50 foizi;

- agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Gafurov), moliya bo‘limi (Yusupov), Davlat soliq inspeksiyasi (Sharopov) tuman hokimligi bilan birgalikda 2022-yilgi mahalliy budjetida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

12. Belgilansinki:

- barcha budjet tashkilotlari tomonidan 2022-yilda budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sharopov):

- O‘zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi"da belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sharopov), Kadastrlar palatasi Farg‘ona tumani filiali boshlig‘i (Otajonov) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1.0 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasinlar.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sharopov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Farg‘ona mintaqaviy inspeksiyasi (Raximov) hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

- xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq

hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (Salmonov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sharopov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (Ergasheva) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organiga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman hokimining o'rinbosari (Qo'chqarov) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sirojiddinov) va Bo‘sh turgan ob’yektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (Hakimov) bilan birgalikda:

- bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

- xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari ro‘yxatini shakllantirish;

- shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

- bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

- xususiylashtirishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini «e-ijro auksion» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sharopov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslarning 2021-yil yakunlari bo‘yicha sof foydasidan budjetga ajratmalarni 2022-

yilning 1-sentyabridan kechiktirmasdan budjetga undirilishini ta’minlasin.

20. Tuman hokimi o'rinbosari (Teshajonov) Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (Xolmatov) bilan birgalikda tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’yektlari bo‘yicha shartnomalar tuzsinlar hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishini ta’minlasinlar.

21. Tuman irrigatsiya bo‘limi (Oxunov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sharopov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Bababekov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (Ristayev), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (Ortiqov) tumanda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

23. Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

- tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari tuman hokimligining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to‘g‘risidagi belgilangan tartibga amal qilsin.

- tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman hokimligi, yoshlar ishlari bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini

ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ulligi belgilab qo‘yilsin.

24. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tuman hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tuman hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

25. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy byudjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

26. Tuman hokimligi, budjet mablag‘lari taqsimlovchilari hamda mas’ul muassasa va tashkilotlar:

- harajatlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

- qo‘shimcha manbalar hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

- mahalliy budjetning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib borilishini ta’minlasin.

27. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Gafurov), tuman hokimligi, tegishli muassasa va tashkilotlar rahbarlari:

- budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

- soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan

zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

- tegishliligi ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

28. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

29. Mazkur qaror Vodil yog‘dusi tahririyatida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

30. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

31. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Farg'ona tumani Kengashi raisi **Sh.Muminov**

Халқ депутатлари Фарғона туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-60-11-163-K/21-сон қарорига
1-илова

Farg‘ona tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Daromadlar nomi	Ajratma me’yori	Farg‘ona tumani
I.	**Tartibga soluvchi daromadlar**		**25 838 000**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*50*	25 838 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i		*0*
II.	**Biriktirilgan daromadlar**		**45 355 700**
	To‘liq tuman mahalliy byudjetiga		**28 910 000**
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	100	10 205 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	100	1 095 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100	5 013 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100	12 352 000
5	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100	245 000
	Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar		**16 445 700**
1	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	50	1 773 500

2	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i	20	3 885 200
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	50	905 500
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	50	3 986 000
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	50	5 895 500
III.	**Mahalliy byudjet daromadlari prognozi**		**71 193 700**
IV.	**O‘tkazib beriladigan daromadlar**		**35 178 000**
	Aholi soni (ming.kishi) 01.07.2021 holatiga		218
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo		13 314 000
15	Mobil aloqa xizmatini ko‘rsatganlik uchun aksiz solig‘i		7 585 000
16	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i		14 279 000
V.	**Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari**		**106 371 700**
VI.	**Mahalliy byudjetlarning jami xarajatlari**		**206 634 101,0**
VII.	**Transfertlar**		**100 262 401**

Халқ депутатлари Фарғона туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-60-11-163-K/21-сон қарорига
2-илова

Farg‘ona tumani mahalliy byudjetidan 2022-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

Ko‘rsatkichlar		**Farg‘ona tumani**
	XARAJATLAR-JAMI	**206 634 101**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI**	**157 041 595**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	31 175 393
	- maktabgacha ta’lim	18 336 961
	- umumiy ta’lim	12 838 432
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog‘liqni saqlash	72 983 353
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 283 091
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 542 915
	- sport	3 740 176
1.4	Tibbiy ijtimoiy xizmatlar bo‘limi (Yolg‘iz qariyalar uchun oziq-ovqat)	24 096
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensasiyalar	47 478 065
1.14	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	97 597
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**14 384 520**
	shu jumladan:	
2.3	Obodonlashtirish	11 783 984
2.16	Veterinariya qo‘mitasi	1 035 536
2.17	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 565 000
3.	**MARKAZLASHTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISHGA XARAJATLAR**	**0**
4.	**DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINI SAQLASH**	**11 850 275**
	shu jumladan:	
4.1	Davlat xokimiyati organlari	
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	11 850 275

5.	**FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI SAQLASH**	**7 581 245**
6.	**Justify Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari**	**3 713 737**
7.	**Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari**	**274 551**
6.	**ZAHIRA JAMG‘ARMASI**	**1 948 459**
7.	**BOSHQA XARAJATLAR**	**9 839 719**
	shu jumladan:	
7.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
7.2	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	0
7.3	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	9 839 719
7.4	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	0
7.5	Chet el kreditlarini qoplash	
	JAMI MAHALLIY DAROMADLAR	**106 315 200**
	TRANSFERT	**100 318 901**

Халқ депутатлари Фарғона туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-60-11-163-K/21-сон қарорига
3-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022-yil uchun (1.0 ga uchun)
1	Farg‘ona t	Shoximardon MFY	0,80	23 200
2	Farg‘ona t	Yordon MFY	0,80	23 200
3	Farg‘ona t	Yu.Vodil MFY	1,00	29 000
4	Farg‘ona t	Navruz MFY	1,00	29 000
5	Farg‘ona t	Obod MFY	1,00	29 000
6	Farg‘ona t	Qorayantok MFY	1,00	29 000
7	Farg‘ona t	Vodil MFY	1,00	29 000
8	Farg‘ona t	Xo‘ja Axmad Vale MFY	1,00	29 000
9	Farg‘ona t	Sanoat MFY	1,00	29 000
10	Farg‘ona t	Xosilot MFY	1,00	29 000
11	Farg‘ona t	Tinchlik MFY	1,00	29 000
12	Farg‘ona t	Beruniy MFY	1,00	29 000
13	Farg‘ona t	Bo‘ston MFY	1,00	29 000
14	Farg‘ona t	Margilon MFY	1,00	29 000
15	Farg‘ona t	Dilkusho MFY	1,00	29 000
16	Farg‘ona t	Yambarok MFY	1,00	29 000
17	Farg‘ona t	Novkent MFY	1,00	29 000
18	Farg‘ona t	Yuksalish MFY	1,00	29 000
19	Farg‘ona t	Toshqo'rg'on Aziz MFY	1,00	29 000
20	Farg‘ona t	Shoximardonobod MFY	1,00	29 000
21	Farg‘ona t	Kaptarxona MFY	1,00	29 000
22	Farg‘ona t	Yoyilma MFY	1,00	29 000
23	Farg‘ona t	Mexnatobod MFY	1,00	29 000

24	Farg‘ona t	B.Xamjixatlik MFY	0,90	26 100
25	Farg‘ona t	Logon MFY	1,00	29 000
26	Farg‘ona t	Vaziyo MFY	1,00	29 000
27	Farg‘ona t	Gulpiyon MFY	1,00	29 000
28	Farg‘ona t	Xurshidi Tobon MFY	1,00	29 000
29	Farg‘ona t	Mash’al MFY	1,00	29 000
30	Farg‘ona t	Avval MFY	1,00	29 000
31	Farg‘ona t	Birdamlik MFY	1,00	29 000
32	Farg‘ona t	Mozortagi MFY	1,00	29 000
33	Farg‘ona t	Qorasuv MFY	1,00	29 000
34	Farg‘ona t	O‘rta qishloq MFY	1,00	29 000
35	Farg‘ona t	Oqtepa MFY	1,00	29 000
36	Farg‘ona t	Damko‘l MFY	1,00	29 000
37	Farg‘ona t	Bo‘stonobod MFY	1,00	29 000
38	Farg‘ona t	Guliston MFY	1,00	29 000
39	Farg‘ona t	Oqtom MFY	1,00	29 000
40	Farg‘ona t	O‘rta sho‘ra MFY	1,05	30 450
41	Farg‘ona t	Ilg‘or MFY	1,05	30 450
42	Farg‘ona t	Chek-sho‘ra MFY	1,05	30 450
43	Farg‘ona t	Satkak MFY	1,05	30 450
44	Farg‘ona t	Okbilol MFY	1,00	29 000
45	Farg‘ona t	Yangiobod MFY	0,90	26 100
46	Farg‘ona t	Soy bo‘yi MFY	1,00	29 000
47	Farg‘ona t	Qo'riq MFY	1,00	29 000
48	Farg‘ona t	Pastki Archa MFY	1,00	29 000
49	Farg‘ona t	Yuqori Archa MFY	1,00	29 000
50	Farg‘ona t	Chimyon MFY	1,00	29 000
51	Farg‘ona t	Baxor MFY	1,00	29 000
52	Farg‘ona t	Ulugbek MFY	1,00	29 000
53	Farg‘ona t	Langar MFY	1,00	29 000
54	Farg‘ona t	Qurilish MFY	1,00	29 000
55	Farg‘ona t	Zilol MFY	1,00	29 000
56	Farg‘ona t	Shifokor MFY	1,00	29 000

57	Farg‘ona t	Do‘stlik MFY	1,00	29 000
58	Farg‘ona t	Gulshan MFY	1,00	29 000
59	Farg‘ona t	Dexqonobod MFY	1,00	29 000
60	Farg‘ona t	Boy maxalla MFY	1,00	29 000
61	Farg‘ona t	Yuqori Gulshan MFY	1,00	29 000
62	Farg‘ona t	Mindon MFY	1,00	29 000
63	Farg‘ona t	Markaz MFY	1,00	29 000
64	Farg‘ona t	Guzar MFY	1,00	29 000
65	Farg‘ona t	Xo‘roba MFY	1,00	29 000
66	Farg‘ona t	Sh. Xakikati MFY	1,00	29 000
67	Farg‘ona t	Mindonobod MFY	1,00	29 000
68	Farg‘ona t	Yangi asr MFY	1,05	30 450
69	Farg‘ona t	Xonqiz MFY	1,00	29 000
70	Farg‘ona t	Ok Oltin MFY	1,00	29 000
71	Farg‘ona t	O‘zbekiston MFY	1,00	29 000
72	Farg‘ona t	Farg‘ona MFY	1,00	29 000
73	Farg‘ona t	Qo'rg‘ontepa MFY	1,00	29 000
74	Farg‘ona t	Maydon MFY	1,00	29 000
75	Farg‘ona t	Yangi yul MFY	1,00	29 000
76	Farg‘ona t	Konchilar MFY	1,00	29 000

Халқ депутатлари Фарғона туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-45-60-11-163-K/21-сон қарорига
4-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1.0 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)
1	Farg‘ona t	Shoximardon MFY	0,80	208,0
2	Farg‘ona t	Yordon MFY	0,80	208,0
3	Farg‘ona t	Yu.Vodil MFY	1,00	260,0
4	Farg‘ona t	Navruz MFY	1,00	260,0
5	Farg‘ona t	Obod MFY	1,00	260,0
6	Farg‘ona t	Qorayantok MFY	1,00	260,0
7	Farg‘ona t	Vodil MFY	1,00	260,0
8	Farg‘ona t	Xo‘ja Axmad Vale MFY	1,00	260,0
9	Farg‘ona t	Sanoat MFY	1,00	260,0
10	Farg‘ona t	Xosilot MFY	1,00	260,0
11	Farg‘ona t	Tinchlik MFY	1,00	260,0
12	Farg‘ona t	Beruniy MFY	1,00	260,0
13	Farg‘ona t	Bo‘ston MFY	1,00	260,0
14	Farg‘ona t	Margilon MFY	1,00	260,0
15	Farg‘ona t	Dilkusho MFY	1,00	260,0
16	Farg‘ona t	Yambarok MFY	1,00	260,0
17	Farg‘ona t	Novkent MFY	1,00	260,0
18	Farg‘ona t	Yuksalish MFY	1,00	260,0
19	Farg‘ona t	Toshqo'rg'on Aziz MFY	1,00	260,0
20	Farg‘ona t	Shoximardonobod MFY	1,00	260,0
21	Farg‘ona t	Kaptarxona MFY	1,00	260,0
22	Farg‘ona t	Yoyilma MFY	1,00	260,0
23	Farg‘ona t	Mexnatobod MFY	1,00	260,0
24	Farg‘ona t	B.Xamjixatlik MFY	0,90	234,0
25	Farg‘ona t	Logon MFY	1,00	260,0

26	Farg‘ona t	Vaziyo MFY	1,00	260,0
27	Farg‘ona t	Gulpiyon MFY	1,00	260,0
28	Farg‘ona t	Xurshidi Tobon MFY	1,00	260,0
29	Farg‘ona t	Mash’al MFY	1,00	260,0
30	Farg‘ona t	Avval MFY	1,00	260,0
31	Farg‘ona t	Birdamlik MFY	1,00	260,0
32	Farg‘ona t	Mozortagi MFY	1,00	260,0
33	Farg‘ona t	Qorasuv MFY	1,00	260,0
34	Farg‘ona t	O‘rta qishloq MFY	1,00	260,0
35	Farg‘ona t	Oqtepa MFY	1,00	260,0
36	Farg‘ona t	Damko‘l MFY	1,00	260,0
37	Farg‘ona t	Bo‘stonobod MFY	1,00	260,0
38	Farg‘ona t	Guliston MFY	1,00	260,0
39	Farg‘ona t	Oqtom MFY	1,00	260,0
40	Farg‘ona t	O‘rta sho‘ra MFY	1,00	260,0
41	Farg‘ona t	Ilg‘or MFY	1,00	260,0
42	Farg‘ona t	Chek-sho‘ra MFY	1,00	260,0
43	Farg‘ona t	Satkak MFY	1,00	260,0
44	Farg‘ona t	Okbilol MFY	1,00	260,0
45	Farg‘ona t	Yangiobod MFY	0,90	234,0
46	Farg‘ona t	Soy bo‘yi MFY	1,00	260,0
47	Farg‘ona t	Qo'riq MFY	1,00	260,0
48	Farg‘ona t	Pastki Archa MFY	1,00	260,0
49	Farg‘ona t	Yuqori Archa MFY	1,00	260,0
50	Farg‘ona t	Chimyon MFY	1,00	260,0
51	Farg‘ona t	Baxor MFY	1,00	260,0
52	Farg‘ona t	Ulugbek MFY	1,00	260,0
53	Farg‘ona t	Langar MFY	1,00	260,0
54	Farg‘ona t	Qurilish MFY	1,00	260,0
55	Farg‘ona t	Zilol MFY	1,00	260,0
56	Farg‘ona t	Shifokor MFY	1,00	260,0
57	Farg‘ona t	Do‘stlik MFY	1,00	260,0
58	Farg‘ona t	Gulshan MFY	1,00	260,0
59	Farg‘ona t	Dexqonobod MFY	1,00	260,0

60	Farg‘ona t	Boy maxalla MFY	1,00	260,0
61	Farg‘ona t	Yuqori Gulshan MFY	1,00	260,0
62	Farg‘ona t	Mindon MFY	1,00	260,0
63	Farg‘ona t	Markaz MFY	1,00	260,0
64	Farg‘ona t	Guzar MFY	1,00	260,0
65	Farg‘ona t	Xo‘roba MFY	1,00	260,0
66	Farg‘ona t	Sh. Xakikati MFY	1,00	260,0
67	Farg‘ona t	Mindonobod MFY	1,00	260,0
68	Farg‘ona t	Yangi asr MFY	1,00	260,0
69	Farg‘ona t	Xonqiz MFY	1,00	260,0
70	Farg‘ona t	Ok Oltin MFY	1,00	260,0
71	Farg‘ona t	O‘zbekiston MFY	1,00	260,0
72	Farg‘ona t	Farg‘ona MFY	1,00	260,0
73	Farg‘ona t	Qo'rg‘ontepa MFY	1,00	260,0
74	Farg‘ona t	Maydon MFY	1,00	260,0
75	Farg‘ona t	Yangi yul MFY	1,00	260,0
76	Farg‘ona t	Konchilar MFY	1,00	260,0